

GENDER VA ETNIK MASALALARNING BAHOLASHGA TA'SIRI

Xalqaro Nordic univertiteti
o'qituvchisi TDPU mustaqil
tadqiqotchisi Sh.Sh. Shodiboyev

Annotatsiya

Gender va etnik masalalarning baholashga ta'siri tadqiqotida shaxs xususiyatlarini o'lchash jarayonida jins, etnik kelib chiqish va madaniy qadriyatlar omillari baholash natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda gender asosida test natijalaridagi farqlar, masalan, ayollarda depressiya va xavotir darajalarining erkaklarga nisbatan yuqoriligi, madaniy stereotiplar va kamsitishlar sababli yuzaga kelishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Etnik guruhlar orasida madaniy farqlar, til to'siqlari va ruhiy salomatlik bo'yicha yordamga murojaat qilishdagi turli yondashuvlar baholash jarayonida o'ziga xos natijalar hosil qiladi. Masalan, osiyo-amerikaliklar orasida ruhiy muammolar uyatli holat sifatida qabul qilinishi sababli yordam so'rash ehtimoli past bo'ladi, qora tanlilar esa diskriminatsiya tajribasi tufayli yuqori darajadagi ishonchsizlik ko'rsatadi.

Shuningdek, Amerika shaxsiyat testlarining boshqa madaniy guruhlar uchun moslashuvi va ishonchliligi masalalari muhokama qilinib, g'arb qadriyatlariga asoslangan testlar kollektivistik madaniyatlardagi xulq-atvorni to'liq baholay olmasligi ta'kidlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baholash metodologiyalarini madaniyat va irqiy xususiyatlarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish muhimdir.

Shaxsni baholash natijalari insonning jinsiga qarab farq qilishi mumkin. Masalan, ayollar assertivlik¹ni o'lchovchi testlarda erkaklarga qaraganda pastroq ball olishga moyil bo'lib, bu farq ayrim madaniyatlarda qizlar va yosh ayollarga tadbiq qilinadigan o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va ehtiyojlarini boshqalarga ishonch bilan yetkazishga qarshilik qiladigan

¹ Bu shaxsning o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va ehtiyojlarini boshqalarga ishonch bilan yetkazish, lekin bu jarayonda boshqalarning huquqlarini buzmaslik qobiliyatini bildiradi.

jinsiy rol tarbiyasidan kelib chiqishi mumkin. Sababi nima bo'lishidan qat'i nazar, shaxs testlari natijalari ko'pincha erkaklar va ayollar o'rtasida turli yosh guruhlarida ham farq ko'rsatadi. Masalan, o'rtacha yoshi 11 bo'lgan 474 nafar bola o'rganilgan tadqiqotda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda yuqori darajada depressiya va boshqalarning ular haqida qanday o'ylashi bilan ko'proq tashvishlanishlarini ko'rsatdi (Rudolph & Conley, 2005).

Bundan tashqari, shaxs testlari, klinik intervyular va boshqa baholash usullaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, turli emotsional buzilishlar uchun tashxislash darajalarining jinsga qarab farq qilishini ko'rsatadi. Ayollarda depressiya, xavotir va shu kabi muammolarga erkaklarga qaraganda ko'proq yo'liqishadi. Bunga bir necha sabablar mavjud: ushbu buzilishlar ayollar orasida haqiqatan ham ko'proq uchrashi mumkin yoki baholash natijalarini talqin qilishda jinsiy kamsitish yoki stereotiplash ta'siri mavjud bo'lishi mumkin. Shuningdek, baholash natijalariga asoslanib davolash usullarini tavsiya qiluvchi terapevtlarning o'zlari ayollarga nisbatan noto'g'ri tasavvurlarga ega bo'lishi mumkin. Turli psixik buzulishlarda ayollar uchun terapiya o'rtacha erkaklarnikidan ko'proq vaqt davom etadi va ularga buyurilgan psixoaktiv dori vositalarining dozalari erkaklarnikiga qaraganda yuqori bo'ladi.

Osiyoliklar

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi osiyo-amerikaliklar turli millat vakillarini o'z ichiga olgan murakkab va xilma-xil guruhni tashkil qiladi, masalan, xitoylik, yapon, filippinlik, tailandlik, koreys va vetnamlik. MMPI kabi psixologik test Xitoyning yirik shahrida haqiqiy deb topilgan bo'lsa-da, AQShda yashayotgan xitoyliklarga yoki hatto Xitoyning boshqa hududlarida yashayotgan xitoyliklarga nisbatan ham haqiqiy bo'lmasligi mumkin. MMPI va boshqa shaxs xususiyatlari testlari osiyolik tillarga tarjima qilingan bo'lsa-da, ularni osiyo-amerikaliklar uchun qo'llashda ishonchlilik va haqiqiylik bo'yicha tadqiqotlar kam o'tkazilgan.

Oldingi bo'limlarda aytib o'tganimizdek, osiyoliklar va osiyolik bo'lmaganlar o'rtasida shaxs xususiyatlarining katta va izchil madaniy farqlari mavjud. Osiyo madaniyatlari, shuningdek, ruhiy kasalliklarga chalinish va davolanishga bo'lgan munosabatlarida g'arbiy jamiyatlardan farq qiladi.

Osiyo-amerikaliklar har qanday ruhiy kasallikni uyatli holat sifatida qabul qilishga moyil va buni tan olishdan xavsirashadi. Natijada, ular emotsional muammolar bo'yicha terapevt yoki maslahatchiga murojaat qilish ehtimoli kamroq. Tadqiqotlar ko'p hollarda osiyo-amerikaliklar, ayniqsa ko'chib kelgan birinchi avlod, ruhiy salomatlik xizmatlaridan kamroq foydalanishini ko'rsatadi. AQShda tug'ilganlar chet elda tug'ilganlarga qaraganda deyarli ikki baravar ko'proq psixologik yordam so'rab mutaxassisga murojaat qilishadi (Meyer, Zane, Cho, & Takeuchi, 2009). AQShdagi birinchi avlod xitoylik talabalar AQShdagi birinchi avlod yevropalik talabalarga qaraganda emotsional muammolar uchun davolanishga murojaat qilish ehtimoli ancha pastligi aniqlangan (Hsu & Alden, 2008). Osiyo-amerikaliklar, shuningdek, yordam so'rashdan oldin muammo kuchayguncha kutishga moyil va natijada bundan jabr chekishadi (Hwang, 2006).

Nyu-Yorkdagi bir psixolog xitoylik muhojir bemorlar dastlab faqat bel og'rig'i yoki qorin og'rig'i kabi jismoniy alomatlardan shikoyat qilishlarini va hech qachon depressiya haqida gapirmasliklarini qayd etgan. Ularga depressiya kabi muammoni tasvirlaydigan darajada ishonchib gapirishi uchun bir necha seans kerak bo'lgan. Ba'zi osiyo tillarida, masalan, koreys tilida depressiya uchun maxsus so'z ham mavjud emas. Psixolog bir koreys mijoz oxir-oqibat ko'ksiga musht bilan urib, o'zini "yuragim cho'kkan" deb tasvirlab bergan, shunday qilib ruhiy holatini jismoniy jihatdan tasvirlab bergan (Kershaw, 2013). Osiyo-amerikaliklar oq tanlilarga qaraganda antidepressant dori vositalarini qabul qilish ehtimoli ancha kamroq (Gonzalez, Tarraf, Brady, Chan, Miranda, & Leong, 2010).

Kasalliklarning xususiyatiga nisbatan qarama-qarshi tushunchalar sababli, har xil madaniy kelib chiqishga ega odamlar shaxsni baholash metodikalarida turli natijalar olishlarini tushunish oson. Shuningdek, amerika qadriyatlari, e'tiqodlari va me'yorlaridan hammani baholash mezoni sifatida foydalanish amaliyotidan kelib chiqib aytish muminki, osiyo-amerikaliklar amerikalik yevropaliklardan farqli ruhiy tashxislar olishlari mumkin.

Qoratanlilar

1990-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar o'z-o'zini baholash testlarida qora va oq respondentlar o'rtasidagi odatdagi izchil farqlarni ko'rsatdi.

Bunday test natijalariga asoslanib, ayrim psixologlar MMPI kabi ommabop va tez-tez ishlatiladigan shaxsiyat testlari afrikalik amerikaliklarga nisbatan ishlatish xato ish ekanligini va ularning shaxsiyatini baholash uchun ishlatilmasligi kerakligini ta'kidladilar. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlovchi dalillar keyinchalik MMPI yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar tomonidan rad etildi. Masalan, Veteran²lar Administratsiyasi (VA) markazida kasalxonaga yotqizilgan (qoratanli va oq tanli) psixiatrik bemorlarini o'rgangan tadqiqotda testning hech bir shkalasida sezilarli farq topilmagan (Arbisi, Ben-Porath, & McNulty, 2002).

Biroq, qoratanli va oq tanli kollej talabalari paranoya³ o'lchash uchun mo'ljallangan testda baholashda farqlanishlar kuzatilgan. Qoratanli talabalar boshqalarga nisbatan ishonchsizlik, o'zlarining motivlaridan shubhalanish va boshqalarga nisbatan ehtiyotkor bo'lishni o'lchovchi savollarda ancha yuqori ball olishgan. Keyinchalik 55-64 yoshdagi qoratanli respondentlar bilan o'tkazilgan tadqiqotlarda ham shunga o'xshash natijalar, yuqori darajadagi ishonchsizlik va paranoik shaxs xususiyatlari aniqlangan (Iacovino, Jackson, & Oltmanns, 2014).

Ushbu izchil natijalar qora tanlilarning oq tanlilarga qaraganda ko'proq paranoik ekanligini anglatadimi? Yo'q. Bunday va shunga o'xshash natijalarni mos ravishda irqiy va etnik kontekstda baholashimiz va talqin qilishimiz kerak. Tadqiqotchilar bu holatga shunday izoh berishgan: "Guruhlar o'rtasidagi bunday farqlar keng tarqalgan diskriminatsiya va qabul qilingan irqchilik tufayli paydo bo'lgan ishonchsizlik yoki shaxslararo ogohlikni aks ettirishi mumkin" (Combs, Penn, & Fenigstein, 2002, p. 6). 2014-yilgi tadqiqotda ham xuddi shunday xulosaga kelindi.

Boshqa tadqiqotda kuchli qora tanli madaniy qadriyatlarga ega bo'lgan afrika-amerikalik kollej talabalari bunday identifikatsiyaga ega bo'lmaganlarga qaraganda depressiya va umidsizlik darajasi pastroq ekanligi aniqlandi (Walker, Alabi, Roberts, & Obasi, 2010). Biroq, diskriminatsiyani yuqori darajada sezgan qora tanli o'smirlar o'z-o'zini hurmat qilish va hayotdan qoniqishda past hamda yuqoriroq depressiya darajasini ko'rsatganlar (Seaton, Caldwell, Sellers, & Jackson, 2010).

² Sobiq harbiylar

³ **Paranoya** — bu shaxsning atrofdagilar yoki voqealarga nisbatan haddan tashqari shubha va ishonchsizlik holati bo'lib, o'ziga qarshi zararli yoki dushmanlik niyatidagi hatti-harakatlar bor deb o'ylashidir.

MMPI test natijalarini talqin qilishga irqning ta'siri qanday? Oq tanli tadqiqotchilar qora tanli yoki oq tanli bo'lgan shaxs testini tekshirishganda natijalarni boshqacha talqin qilishadimi? Ikkita so'nggi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qora tanli yoki oq tanli shaxslarning test natijalarining talqinlarida hech qanday farq yo'q ekan (Knaster, 2013; Knaster & Micucci, 2013).

Qora tanli kollej talabalari bilan olib borilgan maslahat va terapiya ta'sirini o'rganuvchi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabalar qora tanli terapevtlarni oq tanli terapevtlarga qaraganda ijobiyroq baholashadi. Talabalar qora tanli terapevtlar bilan uchrashganda davolash usullarini yaxshiroq qabul qilishgan va tushungan, shuningdek, terapiya ularga foyda keltirishiga ishonishgan (Thompson & Alexander, 2006; Want, Parham, Baker, & Sherman, 2004).

Ispanlar

Tadqiqotlar ispan kelib chiqishidan bo'lgan odamlar tomonidan MMPI bo'yicha olingan ballar oq tanlilar tomonidan olingan ballarga o'xshash ekanligini ko'rsatadi (qarang, masalan, Handel & Ben-Porath, 2000). Biroq, proyektiv texnikalarda vaziyat boshqacha. Meksika, Markaziy Amerika va Janubiy Amerikadan kelgan shaxslar uchun Rorschach ballari keng qamrovli baholash tizimi me'yorlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, ushbu me'yorlar ispan aholisi uchun foydali ekanligini aytish qiyin (Wood va boshq., 2002).

Shuningdek, ispanlar boshqa ozchilik guruhlarga qaraganda psixologik maslahat yoki davolanishni izlash ehtimoli kamroq ekanligi aniqlangan. Maslahat olish uchun murojaat qilgan ispanlarning yarmiga yaqini hech qachon birinchi tashrifdan keyin qo'shimcha seanslarga qaytmaydi (Dingfelder, 2005). Oq tanli va ispan o'smirlarini o'rganish natijalari ko'rsatdiki, juda ko'proq oq tanlilar ispanlarga qaraganda adekvat ruhiy salomatlik bo'yicha yordamiga ega bo'lishar ekan (Alexandre, Martins, Silvia, & Richard, 2009). AQShda tug'ilgan ispanlarga qaraganda, chet elda tug'ilgan ispanlar ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanish ehtimoli kamroq (Bridges, deArellano, Rheingold, Danielson, & Silcott, 2010).

Ruhiy salomatlik bo'yicha maslahatlarga murojaat qilgan ispan o'smirlari odatda oq tanli o'smirlarga qaraganda qisqa muddat davomida ko'riladi (Edman, Adams, Park, & Irwin, 2010). Biroq, meksika-amerikalik

kollej talabalari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ular asosiy AQSh madaniyatiga qanchalik ko'proq integratsiyalashgan bo'lsa, maslahatga bo'lgan munosabatlari shunchalik ijobiy bo'lar ekan (Ramos-Sanchez & Atkinson, 2009). Bunga sabablardan biri sifatida ispan tilida so'zlashuvchi klinik psixologlar va boshqa ruhiy salomatlik xodimlarining yetishmasligi deb aytiladi. Ispan-amerikaliklar odatda o'z madaniyatini tushunadigan psixologlardan ko'proq mamnun bo'lishadi, chunki ispan madaniyati odatda kollektivistik xarakterga ega bo'lib, shaxsiy emas, guruhga yo'naltirilgan (qarang, masalan, Malloy, Albright, Diaz-Loving, Dong, & Lee, 2004). Shuningdek, ular ispan psixologlari bilan terapiyadan ko'proq foyda olishadi, ammo, afsuski, AQShdagi psixologlarning atigi 1 foizi ispan tilida gaplashadi. Masalan, keksa ispanlar (65 yosh va undan kattalar) maslahat, psixolog yoki psixiatrlar bilan emas, balki oilaviy shifokorlaridan ruhiy salomatlik bo'yicha maslahat olishni afzal ko'rishadi, chunki ular ko'pincha ingliz tilini tushunmaydilar (Dupree, Herrera, Tyson, Jang, & King-Kallimans, 2010).

Kollektivistik madaniyat ispanlarga xos ekanligidan, ispan politsiyachilari o'rtasida PTSS⁴ yuqori darajada qayd etilganligi sabablarini tushuntirishga yordam berishi mumkin, bu qora tanli va no-ispan oq tanli politsiyachilarga qaraganda yuqori bo'lgan. Ispan zobitlar vaziyatlar ta'sirida PTSSga olib keladigan jiddiy voqealardan keyin sezilarli darajada kamroq ijtimoiy yordam olishgan. Tadqiqotchilar ispan zobitlari uchun "ularga madaniy jihatdan qadrlil bo'lgan kollektivistik qarashlar ularning ijtimoiy izolyatsiyaga nisbatan sezgirligini oshirgan va shu bilan ularning stress alomatlarini kuchaytirgan bo'lishi mumkin" deb qayd etishgan (Pole, Best, Metzler, & Marmar, 2005, p. 257). Tana jarohatlari bilan omon qolgan fuqarolar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda ham ispanlarda oq tanlilarga qaraganda PTSS alomatlari yuqori darajada qayd etilgan (Marshall, Schell, & Miles, 2009).

Baholashdagi boshqa madaniy masalalar

Hermann Rorschach shaxsiyatni baholash texnikasidagi madaniy farqlar ta'sirini tan olgan birinchi shaxslardan biri bo'lgan. 1921 yilda u Shveytsariyaning madaniy jihatdan ikki xil hududida yashovchi odamlarning Siyoh Dog'i Testiga bergan javoblaridagi farqlarni aniqlagan.

⁴ PTSS — Posttravmatik stress sindromi (post-traumatic stress disorder, PTSD)ning qisqartmasi bo'lib, shaxs og'ir va travmatik voqealarni boshdan kechirgandan keyin paydo bo'ladigan ruhiy salomatlik buzilishi hisoblanadi.

U bunday javoblar “turli odamlar va irqalar o‘rtasida juda farqli bo‘lishi kerak” deb yozgan (Allen & Dana, 2004, p. 192 dan iqtibos). MMPI-2 dan foydalangan holda amerika hindularini o‘rganish natijalari test savollariga berilgan javoblar o‘sha madaniyatda normal hisoblangan, lekin asosan oq tanli madaniyatga ko‘ra patologik deb topilgan xatti-harakatlarni aks ettirganini ko‘rsatdi (Hill, Pace, & Robbins, 2010). Boshqa tadqiqotlar bir madaniyatda normal bo‘lgan narsa boshqa madaniyatlarda nomaqbul, noto‘g‘ri, kasallik yoki g‘alati deb hisoblanishi mumkinligini ta‘kidlaydi (Cheung, 2009).

Ayrim shaxsiyat testlari boshqa madaniyatlarda qo‘llash uchun tarjima qilingan bo‘lsa-da, testlarda madaniyatlararo qo‘llanishi bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lish ehtimoli katta (qarang, masalan, Gudmundsson, 2009). Bu, ayniqsa, g‘arbiy madaniyat aholisi uchun mo‘ljallangan test sharq madaniyatiga, masalan, xitoy yoki filippinlarga tatbiq etilganda juda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, an‘anaviy xitoyliklar orasida muhim shaxsiyat xususiyatlari ichiga xushmuomala bo‘lish, oilaga yo‘naltirilganlik, boshqalar bilan uyg‘unlikka urg‘u berish va kundalik xatti-harakatlarda tejamkorlik kiradi. Ammo, Amerika shaxsiyat inventarizatsiyalarida (masalan, MMPI kabi testlarda) o‘lchanadigan xususiyatlar odatda bu omillarni hisobga olmaydi, chunki ularning aksariyati individualizm va o‘z-o‘zini namoyon etish kabi g‘arb madaniyatiga xos qadriyatlarni ko‘proq o‘lchaydi. Shuning uchun, xitoyliklar madaniyati uchun muhim bo‘lgan xususiyatlar Amerika shaxsiyat testlarida to‘g‘ri aks etmaydi va ular orqali to‘liq baholanishi qiyin bo‘ladi. Bu madaniyatlararo shaxsiyat baholashda muammolarga olib kelishi mumkin.

MMPI-2 dastlab arab tiliga tarjima qilinganda, jinsiy hayot haqidagi savollarni qanday ko‘rib chiqish kerakligi masalasi yuzaga keldi. Arab davlatlarida jinsiy mavzular haqida ochiq gaplashish nojo‘ya, hatto haqoratli deb hisoblanadi. Tadqiqotchilar testda jinsiy mavzudagi savollarni saqlab qolishga qaror qildilar, lekin ko‘rsatmalarda bu savollarga javob berish ixtiyoriy ekanligini belgilashdi. Eronlik kollej talabalari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning 90 foizidan ko‘prog‘i jinsiy mavzudagi savollarga javob bermaslikni tanladi (Nezami, Zamani, & DeFrank, 2008).

TATni esa islomiy madaniyatlarda qo‘llab bo‘lmaydi, chunki musulmon dinida odamlarni rasmiy ko‘rinishda tasvirlash taqiqlangan. Yevropalik ayollar va musulmon ayollardan TAT rasmlariga javoban hikoyalar to‘qish so‘ralganda, yevropalik ayollar buni osonlik bilan qilishgan, musulmon ayollar esa ikkilanib qolishgan. Tadqiqotchi musulmon ayollar haqida shunday deb yozgan: ular “doimiy ravishda aniq tavsilotlarni berishga ikkilanishadi. Ular [rasmlar haqida] hikoya to‘qish yoki ular haqida hayoliy to‘qimalarda foydalanishdan bosh tortishdi” (Bullard, 2005, p. 235).

Amerika shaxsiyat testlarini boshqa madaniyatlarda qo‘llash uchun tarjima qiluvchi tarjimonlar amerika shevasi va suhbatlashuv uslubidagi iboralar bilan bog‘liq muammolarga ham duch kelishadi. Masalan, “I often get the blues” (tez-tez tushkunlikka tushaman) yoki “I like to keep up with the Joneses” (yon-atrofdagilar bilan bir xilda bo‘lishni yoqtiraman) kabi iboralar boshqa tilga tarjima qilinganda ma'nosiz yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Ta’kidlash joizki, Amerikada ishlab chiqilgan shaxsiyat testlarining arab tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilinishi holatlari ko‘payib bormoqda. Bu, ayniqsa, har ikkala madaniyatga tegishli bo‘lgan shaxs xususiyatlariga to‘g‘ri keladi, masalan, yoshlarda internetga qaramlik. AQShda ishlab chiqilgan Internetga Qaramlik Testi arab davlatlaridagi o‘smirlar orasida bunday qaramlikni o‘lchashda ham ishonchli natija bergan (Hawi, 2013).

MUHIM NUQTALAR: Shaxsiyatni Baholash

Osiyoliklar odatda quyidagilarga ega:

- Kollektivizmda yuqori ball
- Individual raqobat va o‘zini himoya qilishda past ball
- O‘zini oshirish va optimizmida past ball
- Ruhiiy salomatlik davolanishiga murojaat qilish moyilligida past ball

Afrikanlik amerikaliklar odatda quyidagilarga ega:

- Boshqalarga ishonchda past ball
- Umidsizlik va depressiyada past ball (agar qora tanli madaniy qadriyatlarga idon)
- Depressiyada yuqori ball
- Diskriminatsiya his qilinsa, o‘z-o‘zini hurmat qilishda past ball

Ispanlar odatda quyidagilarga ega:

- Ruhiiy salomatlik davolanishiga murojaat qilish moyilligida past ball
- Kollektivizmda yuqori ball
- Jarohatlardan keyingi PTSS alomatlarida yuqori ball

Hatto AQShdagi odamlarning test savollariga javob berish usuli boshqa madaniyatlardan farq qilishi mumkin. To‘g‘ri-noto‘g‘ri yoki variantli testlarga javob berish amerikalik kollej talabalari uchun tabiiy, chunki ular bolalikdan bunday testlarni topshirib kelishgan. Boshqalar uchun bu testga javob berishning noqulay va notanish usul bo‘lishi mumkin.

MMPI Isroilda birinchi marta 1970-yillarda joriy etilganda, ko‘plab odamlar true-false formatiga o‘rganmaganliklari sababli javob berishda qiynalishgan. Test bo‘yicha ko‘rsatmalar qayta yozilib, ishtirokchilarga javoblarini qanday qayd qilishlari kerakligi tushuntirildi (Butcher, 2004). Shaxs testlarini qayta ishlab chiqish va ular orqali har bir madaniyatda tegishli shaxs xususiyatlari aniq aks ettirish va o‘lchashga erishish murakkab jarayon bo‘lib, madaniy qadriyatlarga oid bilim va sezgirlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Rudolph, K., & Conley, C. (2005). The socioeconomic costs and benefits of social-evaluative concerns: Do girls care too much? *Journal of Personality*, 73, 115–138.

Meyer, O., Zane, N., Cho, Y., & Takeuchi, D. (2009). Use of specialty mental health services by Asian Americans with psychiatric disorders. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 77(5), 1000–1005.

Hsu, L., & Alden, L. (2008). Cultural influences on willingness to seek treatment for social anxiety in Chinese- and Europeanheritage students. *Cultural Diversity and Ethnic Minority Psychology*, 14(3), 215–223.

Hwang, W. (2006). The psychotherapy adaptation and modification framework: Application to Asian Americans. *American Psychologist*, 61, 702–715.

Gonzalez, H., Tarraf, W., Brady, T., Chan, D., Miranda, P., & Leong, F. (2010). Antidepressant use among Asians in the United States. *Depression and Anxiety*, 27, 46–55.

Arbisi, P., Ben-Porath, Y., & McNulty, J. (2002). A comparison of MMPI-2 validity in African-American and Caucasian psychiatric inpatients. *Psychological Assessment*, 14(1), 3–15.

Iacovino, J., Jackson, J., & Oltmanns, T. (2014). The relative impact of socioeconomic status and childhood trauma on Black-White differences in paranoid personality disorder syndrome. *Journal of Abnormal Psychology*, 123, 225–230.

Combs, D., Penn, D., & Fenigstein, A. (2002). Ethnic differences in subclinical paranoia: An expansion of norms of the paranoia scale. *Cultural Diversity and Ethnic Minority Psychology*, 8, 248–256.

Walker, R., Alabi, D., Roberts, J., & Obasi, M. (2010). Ethnic group differences in reasons for living and the moderating role of cultural world view. *Cultural Diversity and Ethnic Minority Psychology*, 16, 372–378.

Seaton, E., Caldwell, C., Sellers, R., & Jackson, J. (2010). An intersectional approach for understanding perceived discrimination and psychological well-being among African American and Caribbean Black youth. *Developmental Psychology*, 4, 1372–1379.

Wood, J. M., Garb, H. N., Lilienfeld, S. O., & Nezworski, M. T. (2002). Clinical assessment. *Annual Review of Psychology*, 53, 519–543.

Dingfelder, S. (2005). Closing the gap for Latino patients. *Monitor on Psychology*, 36(1), 58–61.

Alexandre, P., Martins, S., Silvia, S., & Richard, P. (2009). Disparities in adequate mental health care for the past-year major depressive episodes among Caucasian and Hispanic youth. *Psychiatric Services*, 60(10), 1365–1371.

Bridges, A., de Arellano, M., Rheingold, A., Danielson, C., & Silcott, L. (2010). Trauma exposure, mental health, and service utilization rates among immigrant and United Statesborn Hispanic youth: Results from the Hispanic family study. *Psychological Trauma: Theory, Research, Practice, & Policy*, 2(1), 40–48.

Edman, J., Adams, S., Park, M., & Irwin, C. (2010). Who gets confidential care? Disparities in a national sample of adolescents. *Journal of Adolescent Health*, 46, 393–395.

Ramos-Sanchez, L., & Atkinson, D. (2009). The relationship between Mexican American acculturation, cultural values, gender, and help-seeking intentions. *Journal of Counseling and Development*, 87, 62–71.

Malloy, T., Albright, L., Diaz-Loving, R., Dong, Q., & Lee, Y. (2004). Agreement in personality judgments within and between nonoverlapping social groups in collectivist cultures. *Personality and Social Psychology Bulletin*, 30, 106–117.

Dupree, L., Herrera, J., Tyson, D., Jang, Y., & King-Kallimans, S. (2010). Age group differences in mental health care preferences and barriers among Latinos: Implications for research and practice. *Best Practices in Mental Health Care: An International Journal*, 6, 47–59.

Pole, N., Best, S., Metzler, T., & Marmar, C. (2005). Why are Hispanics at greater risk for PTSD? *Cultural Diversity and Ethnic Minority Psychology*, 11, 144–161.

Marshall, G., Schell, T., & Miles, J. (2009). Ethnic differences in posttraumatic stress: Hispanics' symptoms differ in kind and degree. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 77, 1169–1178.